

IJODIY TAJRIBANING SHAKLLANISHI  
FORMATION OF CREATIVE EXPERIENCE

*Karimova Nafisa*  
*O'zJOKU katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** maqolada ijodiy tajribaning shakllanishi haqida so'z borgan. Yozuvchilarning o'z ish uslublari, ijodiy yondashuvlari atroflicha muhokama etilgan. Badiiy adabiyotda tajriba masalasi, uning yoshga va adabiy muhitga xos xususiyatlari atroflicha o'rganilgan. O'zbek adabiyoti namoyondalarining ijodiy ishlariga murojaat qilingan. Maqoladagi fikrlar misollar bilan dalillangan.

**Kalit so'zlar:** ijod yoshi, kuzatish metodi, хотira, ijodiy munosabat

**Аннотация:** в статье рассматривается формирование творческого опыта. Подробно обсуждаются стили работы писателей, их творческие подходы. В художественной литературе всесторонне изучен вопрос опыта, его возрастные и литературно-средовые особенности. Обращение к творческим работам представителей узбекской литературы. Мысли в статье подкреплены примерами.

**Ключевые слова:** творческий возраст, метод наблюдения, память, творческое отношение

**Abstract:** This article examines the formation of creative experience. Writers' working styles and their creative approaches are discussed in detail. In fiction, the issue of experience, its age and literary-environmental characteristics, has been comprehensively studied. Reference to the creative works of representatives of Uzbek literature. The thoughts in the article are supported by examples.

**Keywords:** creative age, observation method, memory, creative attitude

Adabiyotshunoslik so'z ilminining o'ziga xos nazariy jabhalarini umumlashtiruvchi fandir. Fandagi har qanday ilmiy yangilik nazariy asos, aniq fakt va xulosaviy yechim talab etadi. O'zbek adabiyotshunosligida ijod laboratoriyasi masalasi va laboratoriya bilan bog'liq muammolar yakuniy xulosa talab etuvchi mavzular sirasiga kiradi. Maqolada ijod laboratoriyasida kechadigan jarayonlarga urg'u berishga harakat qildik.

Ijodiy qobiliyatlarning tug'ma belgilari har qanday odamga, har qanday normal bolaga xos. Faqat ijodiy rivojlanishga olib boruvchi layoqatni o'z vaqtida anglash va rivojlantira olish kerak. Bunda yirik va yorqin iste'dodlardan kichik va sezilmas layoqatgacha – uzilmas «talantlilik kontinuumi», ya'ni aloqadorligi mavjud, deb tushunish mumkin. Biroq, ijodiy jarayonning mohiyati hamma uchun bir xil. Ijodning aniq materialida, tasniflar ko'lami, ijtimoiy ahamiyati hamda ijodiy jarayonlar bir-biridan farq qilishi mumkin. Avtobiografiyalarni o'rganib chiqsak, aksar shoirlar yo bolaligidan yo o'smirligidan boshlab she'r yozishgan. Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Abdullar Oripov, Erkin Vohidovlar 16-18-yoshlarida she'r yozishni mashq qila boshlaganlar. Ijod laboratoriyasida ijodkor yoshi alohida masala sanaladi. Chunki iste'dod qancha erta namoyon bo'lsa va aniqlansa, kelajakda o'sha ijodkorning ijodiy tajribasi shuncha yuqori bo'ladi. Manbalarda "yozuvchining ijodi gullagan payti" deb, e'tirof etiladigan davr ham bor. Yozuvchining ham hayotiy, ham ijodiy tajribasi yig'ilib bir nuqtaga yetadi, o'sha nuqtada aql va iste'dod o'ta yuqori darajada kesishadi. Ayni pallada bunyod bo'lgan san'at asari o'lmas durdonalar safiga kiradi. Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasi, Tohir Malikning "Shaytanat", Murod Muhammad Do'stning

“Lolazor”, Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” kabi asarlari ijodning gullab –yashnagan paytida yozilgan asarlardir. Yozuvchining ijodi faqat bir marta gullaydimi? degan savol tug‘ilishi tabiiy. Qachonki, insonning hayotda ko‘rgan –kechirganlari, duch kelgan turfa xil kayfiyatlari va turfa xildagi qiyofalari uchun yo saboq, yo sinov, yo ibrat, yo hayrat bo‘lib o‘tib ketadi. Bir so‘z bilan aytganda, ular ijodkorning ijoddagi hayot tajribasi deyiladi. Hayot majmuasining qamrovi kengayib borishi yozuvchida haqiqat uchun yozish ma’suliyatini yuklab boraveradi. Ijodning gullagan davri aslida haqiqat yukini qalbdan qalamga ko‘chirish fursatidir. Yozuvchiga xos eng asosiy xususiyat bu haq so‘z izidan borish, haqiqatga talpinish. Xalqning yuragidagi gaplar aslida aytilishi lozim bo‘lgan haq gaplardir. Yozuvchi buni dastlab yozib ko‘rsatadi. Millat qachonki o‘z yozuvchisini tan olsa, demakki yozuvchi o‘zining ma’suliyatli vazifasini bajargan hisoblanadi.

Yozuvchining asari - boshqa bir yondashuvga ko‘rab bo‘lib o‘tgan voqealarga shaxsiy munosabatining natijasidir. Hayotda bo‘lib o‘tayotgan voqea –hodisalar ongi va yuragida iz qoldirgani uchun ham ularga shaxsiy munosabat bildirib yashaydi. Yozuvchilarning shaxsiy munosabatlari ijobiy yoki salbiy ma’noda ekanini ular yaratgan asarlarni mutolaa qilib tushunish mumkin. Hushyor yozuvchi hayotni kuzatish bobida hamisha bardavomdir. K.Paustovskiy fikricha [2. K. Paustovskiy: 207], hech qachon eng muvaffaqiyatli kuzatuvlarni ham hikoyaga majburlab kiritmaslik kerakligi, zarur bo‘lganda ular o‘z o‘rnini topishini ta’kidlaydi. Kuzatish psixologiyada ob’ektni o‘rganish metodi hisoblanadi. Kuzatuvchi obyektga sezdirmay ish olib borishni talab etiladi. Xuddi shu kabi yozuvchi ham odatda o‘z prototiplariga uning obrazga aylanishi haqida doim ham boxabar etavermaydi. Yozuvchilar samarali kuzatuvlar, so‘zlashuvlar, xarakterlarni asarga sig‘dirish uchun maxsus yon daftar tutadilar. Yon daftar har doim yozuvchi uchun so‘z yoki syujet “garderob”i bo‘lib kelgan. Shu jumladan, xotiralar ham ma’lum ma’noda badiiy asar yozilishiga xizmat qiladi. Har bir xotirada bir umr ertagi yo tarixi yashaydi, bolalik hukmronlik qiladi, armonlar nam tortadi, yoshlikning, samimiyatning qaynab toshgani eshitiladi, zabt etilgan marralar qaytadan bo‘y ko‘rsatib turaveradi. O‘zbek adabiyotida Oybek (“Bolalik xotiralarim”), Abdulla Qahhor (“O‘tmishdan ertaklar”), Odil Yoqubov (“Alvido, Mariko”) kabilar o‘z xotiranomalariga asoslanib asar yozishgan [3. Boboev : 34]. Yozuvchilar odatda, uchta daftar tutadilar: asar yozadigan daftar, kundalik(xotira) va yon daftar. Ularning har biri mukammallik poydevoriga g‘isht qalaydi. Birinchi daftar bo‘lmasa, asar ham yo‘q hisob. Asarni daftardan daftarga ko‘chirish asarni qayta ko‘rilishini, kamchiliklarni butlash, ustida ishlash vaziyatini keltirib chiqaradi. Agar ikkinchi va uchinchi daftarlar tutilmasa, asarning hayotiyliigi, originallik xususiyati kamayadi. Yon daftar tutish yozuvchini jonli hayotga, real voqealarga tez- tez qaytaradi. Biz dalda oladigan hikmatnomalar (jumladan “Tafakkur gulshani”), aforizm to‘plamlari dastavval, yon daftarga yoziladi. Yon daftarga favqulodda hayolga keladigan genial fikrlar muhrlanadi. Har uchchala daftar ijojiy tajribaning shakllanishida o‘z ahamiyatiga ega.

Asarlarning hom rejaları, muhim ma’lumotlar, suhbatlardan olingan taassurotlar yoziladi, tanyidiy fikrlar, boshqa bir ijodkorning ijodiga qo‘yiladigan talab va munosabat qoralab qo‘yiladi. Muxtasar qilib aytganda, yon daftar ijodiy jamiyat kimsalari va narsalari uchun beriladigan “baho tabeli” vazifasini ham bajaradi. She’rlarning bir misrasi, nasriy asarning ilk jumlasini yon daftarga ham sig‘magan fikrlarni O‘tkir Hoshimov kabi ijodkorlar “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”ga yozishlari mumkin.

Ongimiz aks ettirgan narsalarni mustahkamlash, saqlab qolish va keyinchalik tiklash (esga tushirish)dan iborat bo‘lgan aqliy faoliyat xotira deyiladi[4. M.E. Zufarova: 157]. Ijodkorlarda

ongda aks ettirilgan narsalarni esga tushirish faoliyati yon daftar vositasida faollashadi. Unutish jarayoni ular uchun begona. Ijodkorlar go‘zal xotiralarga tez –tez qaytadilar. Bu barcha ijodkorlarni birlashtirib turuvchi yagona xususiyat. Mana shu narsa o‘zbek adabiyotshunosligida xotiralardan iborat majmua tuzish an‘anasini shakllanishiga sabab bo‘ldi. Jumladan, “Navoiy zamondoshlari xotirasida”, “G‘afur G‘ulom haqida xotiralarim” (*Fathulla Abdullaev*), “Shukur Xolmirzaev zamondoshlari xotirasida”, “Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida”, “Shavkat Rahmonni xotirlab”, “Zulfiya zamondoshlari xotirasida” kabilar, shuningdek, “Men qaytib kelaman” (*Tog‘ay Murodga bag‘ishlangan*), “Abadiy zamondosh” (*Shukur Xolmirzaevga bag‘ishlangan*) kabi kitoblar yozildi. Mazkur asarlar ijod laboratoriyasidagi tadqiqotchini yozuvchi yashagan davr bilan yaqinlashtiradi. Xotiralar ma‘lum ma‘noda tadqiqot ob‘ekti bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, yozuvchining yoshi, kuzatishlari, ijodiy mashqlari, yon daftar bilan ishlashi uning ijodiy hayotdagi tajribasining shakllanishiga samarali ta‘sir ko‘rsatadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va sanat, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma‘naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir / Xalq so‘zi. 2017. 4 avgust
2. Паустовский К. Золотая роза. Кинишев, Литература артистике, 1987
3. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
4. П.И.Иванов, М.Э.Зуфарова. Умумий психология. Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти. Т.: 2008-йил